O´ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O´RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

O`. Toshmetov, R.Turgunbayev

MATEMATIK ANALIZDAN
MISOL VA MASALALAR TO‘PLAMI

2-qism

Toshkent-2010

ANNOTATSIYA

Ushbu metodik qo'llanma pedagogika oliy ta'lim muassasalari «matematika va informatika» bakalavriat ta'lim yonalishining «Matematik analiz» fani dasturiga mos yozilgan bo'lib, bunda matematik analizning ko'p o'zgaruvchili funksiyaning differensial va integral hisobi bo'limidan misol va masalalar berilgan. Bu uslubiy qo'llanmadan «Fizika va astronomiya» bakalavriat yonalishida ta'lim olayatgan talabalar ham foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

M.Madirimov Nizomiy nomidagi TDPU, Matematik analiz kafedrasi professori, f.-m.f.n.

M.Berdiqulov TTYMI, oliy matematika kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv uslubiy kengashining 2010 yil 18-fevraldagi 7-sonli yig'ilishi qaroriga binoan nashrga tavsiya etilgan.

Mundarija

Kirish	**4**
XI-bob. Ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarning differensial hisobi	**5**
1-§. Ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar	5
2-§. Ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarning limiti va uzluksizligi	6
3-§. Xususiy hosilalar va to‘la differensial	8
4-§. Murakkab funksiyalarni differensiallash	11
5-§. Oshkarmas funksiyalarning hosilalari	12
6-§. Yuqori tartibli hususiy hosilalar va yuqori tartibli differensiallar	13
7-§. Ko‘p argumentli funksiyalarning ekstremumlari. Shartli ekstemumlar	15
XII-bob. Karrali integrallar	**17**
1-§. Ikki karrali integrallar	17
2-§. Qutb koordinatalarida ikki karrali integral	21
3-§ Ikki karrali integralni tatbiqlari	22
4-§. Uch karrali integralni hisoblash	25
5-§.Silindrik va sferik koordinatalarda uch karrali integral	26
6-§. Uch karrali integralning tatbiqlari	27
XIII-bob. Egri chiziqli integrallar	**28**
1-§. Birinchi tur egri chiziqli integrallar	28
2-§. Ikkinchi tur egri chiziqli integrallar	29
3-§ Egri chiziqli integrallarning tatbiqlari	32
Javoblar	34
Adabiyot	45

K i r i s h

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari "matematika va informatika" bakalavriat ta'lim yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan o`zbek tilida matematik analizdan misol va masalalar to`plami mavjud emas. Shu sababli dars o`tkazish uchun bir nechta adabiyotlardan misol va masalalarni tanlashga to`g`ri keladi.

Ushbu metodik qo`llanma pedagogika oliy yurtlari "matematika va informatika" bakalavriat ta'lim yo`nalishi talabalari uchun mavjud fan dasturiga mos ravishda yozilgan bo`lib, ko`p argumentli funksiyalarning differensial va integral hisobi bo`limlarini o`z ichiga oladi.

Har bir bobdan oldin kerakli bo`lgan nazariy ma'lumotlar keltirilgan, deyarli barcha misol va masalalarning javoblari berilgan.

Ushbu qo`llanmani tayyorlashda mavjud bo`lgan misol va masalalar to`plamidan ijodiy foydalanildi.

XI-BOB. KO`P O`ZGARUVCHILI FUNKSIYALARNING DIFFERENSIAL HISOBI

1-§. Ko`p o`zgaruvchili funksiyalar

1. Berilgan doimiy C soni uchun xOy tengsizlikdagi f(x,y)=C tenglikni qanoatlantiruvchi barcha nuqtalar to`plami z=f(x,y) funksiyaning sath chizig`i deyiladi.

2. Berilgan doimiy C soni uchun fazodagi f(x,y,z)=C tenglikni qanoatlantiruvchi barcha nuqtalar to`plami u=f(x,y,z) funksiyaning yuksaklik sirti deyiladi.

1. $f(x,y)=\dfrac{3xy}{x^2+y^2}$ funksiyani $x=-2,\ y=8$ dagi qiymatini toping;
2. $f(x,y)=\sqrt{y^2-2x^2}$ funksiyani $x=-4,\ y=10$ dagi qiymatini toping;
3. $F(x,y)=\dfrac{2x-y}{x-2y}$, $F(3,1)$, $F(1,3)$, $F(-2,-4)$, $F(-4,-2)$, $F(a;a)$, $F(a;-a)$ larni hisoblang;
4. $F(x,y)=\dfrac{x+2y}{x-y}$, $F(2;1)$, $F(-3;-1)$, $F(a;b)$, $(a\neq b)$ larni toping;
5. $f(x,y)=e^{\sin(x+y)}$, $f\left(\dfrac{\pi}{2},\dfrac{\pi}{2}\right)$, $f\left(\dfrac{\pi}{2},2\pi\right)$ larni toping;
6. $f(x,y)=x^y+y^{x-1}$, $f(1,1)$, $f(1,2)$, $f(2;2)$ larni toping;

Quyidagi funksiyalarning aniqlanish sohalarini toping.

7. $z=\dfrac{1}{x-y}$;
8. $z=\dfrac{1}{x+y}$;
9. $z=\sqrt{x+y}$;
10. $z=\sqrt{x-y}$;
11. $z=\sqrt{x+y}-\sqrt{x-y}$;
12. $z=\sqrt{x}+\sqrt{y}$;
13. $z=\sqrt{x^2+y^2-9}$;
14. $z=\sqrt{25-x^2-y^2}$;

15. $z = \ln\left(\frac{x^2}{9} + \frac{y^2}{4} - 1\right);$

16. $z = \ln\left(y^2 - 4x + 8\right);$

17. $z = \frac{1}{2 - x^2 - y^2};$

18. $z = \frac{1}{\sqrt{x}} + \frac{1}{\sqrt{y}};$

19. $z = \arcsin\frac{y-1}{x};$

20. $z = \arcsin\frac{x}{2} + \arccos\frac{y}{2};$

21. $u = \frac{1}{\sqrt{x}} + \frac{1}{\sqrt{y}} + \frac{1}{\sqrt{z}};$

22. $u = \sqrt{R^2 - x^2 - y^2 - z^2} + \sqrt{x^2 + y^2 + z^2 - r^2} \quad (r < R).$

Quyidagi funksiyalarning sath chiziqlarini yasang.

23. $z = x + y;$

24. $z = x^2 + y^2;$

25. $z = x^2 - y^2;$

26. $z = x^2 + y;$

27. $u = \frac{x + y + z}{x - y + z}$ funksiyaning yuksaklik sirtlarini toping;

28. $u = z^2 + y^2 + z^2$ funksiyaning yuksaklik sirtlarini toping.

2-§. Ko`p o`zgaruvchili funksiyaning limiti va uzluksizligi

Agar har bir $\varepsilon > 0$ *uchun shunday* $\delta > 0$ *topilib, koordinatalari* $|x - x_0| < \delta, |y - y_0| < \delta$ *tengsizliklarni qanoatlantiruvchi* $M_0(x_0, y_0)$ *dan boshqa barcha* $M(x, y)$ *nuqtalarda* $|f(x, y) - A| < \varepsilon$ *tengsizlik o`rinli bo`lsa, A soni* $f(x, y)$ *funksiyaning* $M_0(x_0, y_0)$ *nuqtadagi limiti deyiladi va u* $\lim\limits_{\substack{x \to x_0 \\ y \to y_0}} f(x, y) = A$ *ko`rinishda yoziladi.*

Agar $\lim\limits_{\substack{x \to x_0 \\ y \to y_0}} f(x, y) = f(x_0, y_0)$ *tenglik o`rinli bo`lsa,* $f(x, y)$ *funksiya* $M_0(x_0, y_0)$ *nuqtada uzluksiz deyiladi.*

Funksiya limitining ta'rifiga asoslanib tengliklarni isbotlang.

29. a) $\lim\limits_{\substack{x\to 2\\ y\to 3}}(2x+3y)=13$; b) $\lim\limits_{\substack{x\to 2\\ y\to -1}} x^2 y=-4$.

30. a) $\lim\limits_{\substack{x\to 1\\ y\to 1}}(3x-y)=2$; b) $\lim\limits_{\substack{x\to 1\\ y\to -1}}\left(x^2+y^2\right)=2$.

Limitlarni toping

31. $\lim\limits_{\substack{x\to 0\\ y\to 0}}\frac{\sqrt{x^2+y^2+1}-1}{x^2+y^2}$;

32. $\lim\limits_{\substack{x\to 0\\ y\to 0}}\frac{\sin\left(x^2 y\right)}{x\,y}$;

33. $\lim\limits_{\substack{x\to 0\\ y\to 0}}\frac{\sin\left(x^3+y^3\right)}{x^2+y^2}$;

34. $\lim\limits_{\substack{x\to 0\\ y\to 0}}\frac{\sqrt{1+x^2y^2}-1}{x^2+y^2}$;

35. $\lim\limits_{\substack{x\to 2\\ y\to 2}}\frac{x^2-y^2}{x^2+2x-xy-2y}$;

36. $\lim\limits_{\substack{x\to 0\\ y\to 0}}(1+xy)^{\frac{1}{|x|+|y|}}$;

37. $\lim\limits_{\substack{x\to 2\\ y\to 2}}\frac{x+y}{x-y}$ mavjudmi?

38. $\lim\limits_{\substack{x\to 0\\ y\to 0}}\frac{2xy}{x^2+y^2}$ mavjudmi?

$(0;0)$ ***nuqtada quyidagi funksiyalarning uzluksizligini tekshiring***.

39. $f(x,y)=\frac{xy}{\sqrt{xy+1}-1}$, $f(0;0)=2$;

40. $f(x,y)=\frac{\sin(xy)}{x}$, $f(0;0)=0$;

41. $f(x,y)=\frac{tg(xy)}{x}$, $f(0;0)=0$;

42. $f(x,y)=\frac{1-\sqrt{xy+1}}{xy}$, $f(0;0)=-\frac{1}{2}$.

Quyidagi funksiyalarning uzulish nuqtalarini toping.

43. $z=\frac{y-1}{(x+1)^2+y^2}$;

44. $z=\frac{x+y}{x^2+y^2}$;

45. $z=\frac{x+3y}{2y-x}$;

46. $z=\frac{4x-y}{x+y^2}$;

47. $z=\frac{5x+2y^2}{\sqrt{xy}}$;

48. $z=\frac{1}{4-x^2-y^2}$.

3-§. Xususiy hosilalar va to`la differensial

1. $z=f(x,y)$ *funksiyaning* $M(x,y)$ *nuqtadagi to`la orttirmasi* $\Delta z=f(x+\Delta x,y+\Delta y)-f(x,y)$ *ni* $\Delta z=A\cdot\Delta x+B\cdot\Delta y+a\cdot\Delta x+\beta\cdot\Delta y$ *ko`rinishda yozish mumkin bo`lsa,* $z=f(x,y)$ *funksiya* $M(x,y)$ *nuqtada differensiallanuvchi deyiladi. Bu yerda A, B lar* $\Delta x$, $\Delta y$ *larga bog`liq emas,* $\Delta x\to 0,\Delta y\to 0$ *da* $\alpha\to 0,\ \beta\to 0$ *bo`ladi.* $M(x,y)$ *nuqtada differensiallanuvchi* $z=f(x,y)$ *funksiya to`la orttirmasining bosh qismi* $A\Delta x+B\Delta y$ *uning to`la differensiali deyiladi va* $dz=\frac{\partial z}{\partial x}dx+\frac{\partial z}{\partial x}dy$ *formula yordamida topiladi.*

2. $z=f(x,y)$ *funksiyaning* $M(x,y)$ *nuqtadagi l yo`nalishi bo`yicha hosilasi deb* $\frac{\partial f}{\partial l}=\lim\limits_{M'\to M}\frac{f(M')-f(M)}{\rho(M',M)}$ *ga aytiladi (*M' *nuqta M nuqtadan o`tuvchi l to`g`ri chiziqda yotadi,* $\rho(M',M)$ *esa orientirilgan* MM' *kesmaning uzunligi).*

Agar $z=f(x,y)$ *funksiyaning* $M(x,y)$ *nuqtada differensiallanuvchi va l yo`nalish koordinata o`qlari bilan* α *va* β *burchaklari tashkil qilsa, u holda*

$$\frac{\partial f}{\partial l}=\frac{\partial f}{\partial x}\cos\alpha+\frac{\partial f}{\partial y}\cos\beta.$$

3. $\overrightarrow{grad}\,f=\frac{\partial f}{\partial x}\vec{i}+\frac{\partial f}{\partial y}\vec{j}$ *vector* $z=f(x,y)$ *funksiyaning* $M(x,y)$ *nuqtadagi gradienti deyiladi.*

***49-68 misollarda berilgan funksiyalarning xususiy hosilalarini toping*.**

49. $z = x^2 - 3y^2 + 5xy$;

50. $z = x^3 + 6xy^2 - 4y^3 - 2xy$;

51. $z = (5x^2 y - y^3 + 7)^3$;

52. $z = \sqrt{x^2 - y^2}$;

53. $z = \ln(x + \sqrt{x^2 + y^2})$;

54. $z = \ln(x + \ln y)$;

55. $z = e^{x^2 \sin y}$;

56. $z = ye^{-xy}$;

57. $z = arctg \dfrac{x}{y}$;

58. $z = \ln \arcsin(xy)$;

59. $z = y^x$;

60. $z = x^{y^2}$;

61. $f(x, y) = x + y - \sqrt{x^2 + y^2}$ funksiya uchun $f'_x\ (3, 4)$, $f'_y\ (3, 4)$ larni hisoblang;

62. $f(x, y) = \sqrt[3]{x^2 + y^3}$ funksiya uchun $f'_x\ (1,1)$, $f'_y\ (1,1)$ larni hisoblang.

63. $u = \sqrt{x^2 + y^2 - z^2 + 2xz}$;

64. $u = \dfrac{x}{\sqrt{x^2 + y^2 + z^2}}$;

65. $u = e^{x(x^2 + y^2 + z^2)}$;

66. $u = \sin(x^2 + y^2 + z^2)$;

67. $u = x^{\frac{y}{z}}$;

68. $u = x^{y^z}$;

69. $z = \ln(x^2 + y^2)$ funksiya uchun $y\dfrac{\partial z}{\partial x} - x\dfrac{\partial z}{\partial y} = 0$ tenglikning o\`rinli ekanligini ko\`rsating.

70. $z = arctg \dfrac{y}{x}$ funksiya uchun $x\dfrac{\partial z}{\partial x} + y\dfrac{\partial z}{\partial y} = 0$ tenglikning o\`rinli ekanligini ko\`rsating.

71. $u = (x - y)(y - z)(z - x)$ funksiya $\dfrac{\partial u}{\partial x} + \dfrac{\partial u}{\partial y} + \dfrac{\partial u}{\partial z} = 0$ tenglikni qanotlantirishini ko\`rsating.

72. $u = x + \frac{x-y}{y-z}$ funksiya $\frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial u}{\partial y} + \frac{\partial u}{\partial z} = 1$ tenglikni qanotlantirishini ko`rsating.

Funksiyalarning to`la differensiallarini toping.

73. $z = x^2 y^3$;

74. $z = \sqrt{x^2 - y^2}$;

75. $z = x^2 y^4 - x^3 y^3 + x^4 y^2$;

76. $z = xy - x^2 y^3 + x^3 y$;

77. $z = e^{y^2 - xy}$;

78. $z = \cos(xy)$;

79. $z = arctg\,(xy)$;

80. $z = \arcsin\frac{x}{y}$;

81. $u = x^2 yz^4$;

82. $u = \ln\left(x^3 - y^3 + 2z^3\right)$;

83. $u = \frac{y}{xz}$;

84. $u = xy^z$;

85. $f(x,y) = 3x^4 + xy + y^3$ funksiyaning (1, 2) nuqtadagi abtsissa o`qi bilan $135^0$ burchak tashkil qiluvchi yo`nalish bo`yicha hosilasini toping.

86. $f(x,y) = arctg(xy)$ funksiyaning (1, 1) nuqtadagi birinchi chorak burchagi bissektrisasi yo`nalishi bo`yicha hosilasini toping.

87. $f(x,y) = x^3 - 3x^2 y + 3xy^2 + 1$ funksiyaning (3, 1) nuqtadagi shu nuqtadan (6, 5) nuqtaga qaratilgan yo`nalish bo`yicha hosilasini toping.

88. $f(x,y) = x^2 y^2 - xy^3 - 3y - 1$ funksiyaning (2, 1) nuqtadagi shu nuqtadan koordinata boshiga qaratilgan yo`nalish bo`yicha hosilasini toping.

89. $f(x,y) = arctg\frac{y}{x}$ funksiyaning $x^2 + y^2 - 2x = 0$ aylanada yotuvchi $(\frac{1}{2}; \frac{\sqrt{3}}{2})$ nuqtada aylananing shu nuqtadagi yo`nalishi bo`yicha hosilasini toping.

90. $f(x,y) = \frac{y^2}{x}$ funksiyaning $2x^2 + y^2 = 1$ ellipsning ixtiyoriy nuqtasida ellipsning o`sha nuqtadagi normali yo`nalishi bo`yicha olingan hosila nolga tengligini isbotlang.

Funksiyalarning gradientlarini toping

91. $z=\sqrt{4+x^2+y^2}$, $(2,1)$ nuqtada;

92. $z=arctg\dfrac{x}{y}$, $(1;2)$ nuqtada;

93. $z=x^2+y^2$, $(x_0,\, y_o)$ nuqtada;

94. $z=2xy$, $(x_0,\, y_o)$ nuqtada.

4-§. Murakkab funksiyalarni differensiallash

95. $z=e^{x-3y}$, $x=\sin t$, $y=t^2$. $\dfrac{dz}{dt}$ ni toping;

96. $z=\dfrac{y}{x}$ $x=e^t$, $y=1-e^{2t}$. $\dfrac{dz}{dt}$ ni toping;

97. $z=\arcsin(x-y)$, $x=4t^2$, $y=t^3$. $\dfrac{dz}{dt}$ ni toping;

98. $z=e^{x^2+y^2}$, $x=a\cos t$, $y=a\sin t$. $\dfrac{dz}{dt}$ ni toping;

99. $z=\ln\dfrac{x}{y}$, $x=tg^2 t$, $y=ctg^2 t$. $\dfrac{dz}{dt}$ ni toping;

100. $z=\ln\left(e^x+e^y\right)$, $y=x^2$. $\dfrac{dz}{dx}$ ni toping;

101. $z=\arcsin\dfrac{x}{y}$, $y=\sqrt{x^2+1}$. $\dfrac{dz}{dx}$ ni toping;

102. $z=x^2+y^2$, $x=u+v$, $y=u-v$ $\dfrac{\partial z}{\partial u}$, $\dfrac{\partial z}{\partial v}$ larni toping;

103. $z=\ln(x^2+y^2)$, $x=uv$, $y=\dfrac{u}{v}$. $\dfrac{\partial z}{\partial u}$, $\dfrac{\partial z}{\partial v}$ larni toping;

104. $z=x^2y-y^2x$, $x=u\cos v$, $y=u\sin v$. $\dfrac{\partial z}{\partial u}$, $\dfrac{\partial z}{\partial v}$ larni toping;

105. $u=\sin\left(x-3y-2z\right)$, $x=2t^3$, $y=t^2$, $z=-t^4$; $\dfrac{du}{dt}$ ni toping;

106. $u=tg\left(x^2+4y-z\right)$, $y=\sqrt{x}$, $z=-\dfrac{1}{x}$. $\dfrac{du}{dx}$ ni toping.

5-§. Oshkormas funksiyalarning hosilalari

$y = f(x)$ *oshkormas funksiya* $F(x, y) = 0$ *tenglik bilan berilgan bo`lsa, u holda* $\frac{dy}{dx} = \frac{F'_x}{F'_y}$. *Xuddi shu kabi* $\Phi(x, y, z) = 0$ *dan* $\frac{\partial z}{\partial x} = -\frac{\Phi'_x}{\Phi'_z}$, $\frac{\partial z}{\partial y} = -\frac{\Phi'_y}{\Phi'_z}$

107-116 misollarda $\frac{dy}{dx}$ ***ni toping.***

107. $x^3 y - y^3 x = 16$;
108. $x^2 + y^2 + \ln(x^2 + y^2) = 1$;
109. $xy - \ln y = 0$;
110. $ye^x + e^y = 0$;
111. $x^y = y^x$;
112. $x + y = e^{\frac{y}{x}}$;
113. $\frac{x^2}{d^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1$;
114. $e^x \sin y = e^y \cos x$;
115. $x^3 + y^3 + 6xy = 0$;
116. $\sin y + e^x - xy^2 = 0$.

117-124 misollarda $\frac{\partial z}{\partial x}$ ***va*** $\frac{\partial z}{\partial y}$ ***larni toping***.

117. $z = \sqrt{xy}$;
118. $x + y + z = e^z$;
119. $x^3 + y^3 + z^3 = 3xyz$;
120. $x^2 + y^2 + z^2 - 8x = 0$;
121. $e^z = \cos x \sin y$;
122. $z^3 + 3xyz = a^3$;
123. $e^Z - xyz = 0$;
124. $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1$.

6-§. Yuqori tartibli hususiy hosilalar va yuqori tartibli differensiallar

1. Ikki argumentli funksiya uchun Teylor formulasi quyidagicha:

$$\Delta f(x,y) = df(x,y) + \frac{1}{2!}d^2 f(x,y) + ... + \frac{1}{n!}d^n f(x,y) +$$

$$+\frac{1}{(n+1)!}d^{n+1}\cdot f(x+\theta\Delta x, y+\theta\Delta y),\ 0<\theta<1$$

yoki

$$f(x+\Delta x, y+\Delta y) = f(x,y) + \frac{\partial f}{\partial x}\Delta x + \frac{\partial f}{\partial y}\Delta y +$$

$$+\frac{1}{2}\left(\frac{\partial^2 f}{\partial x^2}\Delta x^2 + 2\frac{\partial^2 f}{\partial x \partial y}\Delta x \Delta y + \frac{\partial^2 f}{\partial y^2}\Delta y^2\right) + ... + R_n$$

bu yerda R_n – qoldiq had.

2. Sirtga o`tkazilgan urinma tekislik va normalning tenglamasi.

Agar sirt $F(x,y,z)=0$ tenglama bilan berilgan bo`lsa, uning (x_0, y_0, z_0) nuqtasidagi urinma tekislik tenglamasi

$$F'_x(x_0,y_0,z_0)(x-x_0) + F'_y(x_0,y_0,z_0)\cdot(y-y_0) + F'_z(x_0,y_0,z_0)(z-z_0) = 0,$$

normal tenglamasi

$$\frac{x-x_0}{F'_x(x_0,y_0,z_0)} = \frac{y-y_0}{F'_y(x_0,y_0,z_0)} = \frac{z-z_0}{F'_z(x_0,y_0,z_0)}$$

ko`rinishda bo`ldi.

***125-134 misollarda ko`rsatilgan tartibli hususiy hosilalarni toping*.**

125. $z = x + y + \dfrac{xy}{x-y}$, $\quad \dfrac{\partial^2 z}{\partial x^2}, \dfrac{\partial^2 z}{\partial x \partial y}, \dfrac{\partial^2 z}{\partial y^2}$;

126. $z = xe^y$, $\dfrac{\partial^2 z}{\partial x^2}, \dfrac{\partial^2 z}{\partial x \partial y}, \dfrac{\partial^2 z}{\partial y^2}$;

127. $z = y\ln x$, $\dfrac{\partial^2 z}{\partial x^2}, \dfrac{\partial^2 z}{\partial x \partial y}$;

128. $z = \sqrt{2xy + y^2}$, $\dfrac{\partial^2 z}{\partial x \partial y}$;

129. $z = \ln(y + \sqrt{x^2 + y^2})$, $\dfrac{\partial^2 z}{\partial y^2}$;

130. $z = xe^{xe^y}$, $\dfrac{\partial^2 z}{\partial x^2}, \dfrac{\partial^2 z}{\partial x \partial y}, \dfrac{\partial^2 z}{\partial y^2}$;

131. $z=\ln(x+y)$, $\frac{\partial^3 z}{\partial x^2 \partial y}$;

132. $z=\sin(xy)$, $\frac{\partial^3 z}{\partial x \partial y^2}$;

133. $z=e^{xy^2}$, $\frac{\partial^3 z}{\partial x \partial y^2}$;

134. $u=3^{xyz}$, $\frac{\partial^3 u}{\partial x \partial y \partial z}$;

135. $z=e^x \cos y$, $\frac{\partial^2 z}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 z}{\partial y^2}=0$ tenglikni o`rinli ekanligini ko`rsating.

136. $z=\ln(x^2+y^2)$. $\frac{\partial^2 z}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 z}{\partial y^2}=0$ tenglikni o`rinli ekanligini ko`rsating.

***Quyidagi funksiyalarning ko`rsatilgan tartibli differensiallarini toping*.**

137. $z=x+xy$, $d^2 z$;

138. $z=e^{x+y^2}$, $d^2 z$;

139. $z=\ln(x-y)$, $d^2 z$;

140. $z=\frac{x}{x+y}$, $d^2 z$;

141. $z=x\sin^2 y$, $d^2 z$;

142. $u=x+y+xy$, $d^3 z$;

143. $z=e^{x+y}$, $d^n z$;

144. $x^2+y^2+z^2=2z$, $d^2 z$.

Urinma tekislik va normal tenglamalarini yozing

145. $z=xy$, $(2;1;2)$ nuqtada;

146. $z=x^2+y^2$, $(1;1;2)$ nuqtada;

147. $z=\sin\frac{x}{y}$, $(\pi;1;0)$ nuqtada;

148. $z=arctg\frac{y}{x}$, $\left(1;1;\frac{\pi}{4}\right)$ nuqtada;

149. $x^2+y^2+z^2-1=0$, $(x_0;y_0;z_0)$ nuqtada;

150. $(z^2-x^2)xyz-y^5=5$; $(1;1;2)$ nuqtada;

151. $x^2+2y^2+z^2=1$ ellipsoidning $x-y+2z=0$ tekislikka parallel bo`lgan urinma tekislik tenglamasini tuzing.

152. $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}+\frac{z^2}{c^2}=1$ ellipsoidning koordinata musbat yarim o`qlarida bir hil kesma ajratuvchi urinma tekislik tenglamasini tuzing.

Quyidagi funksiyalar uchun Teylor formulasini yozing (birinchi va ikkinchi tartibli hosillar bilan cheklaning)

153. $z=\frac{1}{x-y}$;

154. $z=\ln(x+y)$;

155. $z=e^{xy}$;

156. $z=\sin x\cdot\cos y$;

157. $z=arctg\frac{x}{y}$;

158. $z=e^{x}\cos y$.

7-§. Ko`p argumentli funksiyalarning ekstremumlari. Shartli ekstremumlar

$z=f(x,y)$ funksiya $M(x_0,y_0)$ nuqtada ekstremumga ega bo`lib, $f'_x(x_0,y_0)$, $f'_y(x_0,y_0)$ xususiy hosilalar mavjud bo`lsa, u holda $f'_x(x_0,y_0)=0, f'_y(x_0,y_0)=0$ bo`ladi.

$f''_{x^2}(x_0,y_0)=A, f''_{y^2}(x_0,y_0)=C, f''_{xy}(x_0,y_0)=B$ deb olaylik.

Agar $\Delta=A\cdot C-B^2>0$ bo`lsa, $M(x_0,y_0)$ nuqtada funksiya ekstremumga ega bo`lib, A<0 bo`lsa, maksimum, A>0 bo`lsa minimum bo`ladi.

Quyidagi funksiyalarning ekstremum nuqtalarini toping.

159. $z=3x+6y-x^2-xy+y^2$;

160. $z=e^{\frac{x}{2}}\left(x+y^2\right)$;

161. $z=2x^3-xy^2+5x^2+y^2$;

162. $z=3\ln x+xy^2-y^3$;

163. $z=x^2+y^2-8x-2$;

164. $z=3x^2-y^2+4y+5$;

165. $z=x^3+xy^2+6xy$;

166. $z=x^3+8y^3+6xy-1$;

167. $z=\left(x^2+y^2\right)^{\frac{2}{3}}+4$;

168. $z = 1 - x^4 - (y-2)^6$;

169. $e^z - xyz + x^2y^2 = 0$;

170. $3x^2 + 5y^2 + 2z^2 - 2xy = 0$;

171. $z = x^2 + xy + y^2 + \frac{a^3}{x} + \frac{a^3}{y}$ funksiyani $x = y = \frac{a}{\sqrt[3]{3}}$ nuqtada minimumga ega ekanligini tekshiring .

172. $z = x^4 + y^4 - 2x^2 - 4xy - 2y^2$ funksiyani $x = y = \sqrt{2}$ nuqtada minimumga ega ekanligini tekshiring.

Qu`yidagi funksiyalarni ko`rsatilgan yopiq sohalardagi eng kichik va eng katta qiymatlarni toping.

173. $z = x^2y$; $x^2 + y^2 \le 1$ doirada;

174. $z = x^2 - y^2$; $x^2 + y^2 \le 4$ doirada;

175. $z = x^2 + 3y^2 + x - y$; $x \le 0$, $y \ge 0$, $y - x \le 1$ uchburchakda.

176. $z = x^3 + y^3 - 9xy - 25$; $0 \le x \le 5$, $0 \le y \le 5$ kvadratda

177. $z = x^2 + y^2 - xy + x + y$. $x = 0$, $y = 0$ $x + y = -3$ tug`ri chiziqlar bilan chegaralangan uchburchakda;

178. $z = x^3 + 8y^3 - 6xy + 1$ $x = 0$, $x = 2$, $y = -1$, $y = 1$ tug`ri burchakli to`rtburchaktda;

Shartli ekstemumlarni toping.

179. $z = \frac{1}{x} + \frac{1}{y}$, $\frac{1}{x^2} + \frac{1}{y^2} = 1$;

180. $z = x^2 + y^2$. $x + y = 1$;

181. $z = e^{xy}$, $x + y = a$;

182. $z = x^m + y^m$ $(m > 1)$, $x + y = 2$ $(x \ge 0, y \ge 0)$;

183. $A(1;0)$ nuqtadan $4x^2 + 9y^2 = 36$ ellipsgacha bo`lgan eng qisqa masofani toping.

184. $A(-1;5)$ nuqtadan $y^2 = x$ parabolagacha bo`lgan eng qisqa masofani toping.

185. $x - y = 5$ to`g`ri chiziq va $y = x^2$ parabola orasidagi eng qisqa masofani toping.

186. $\frac{x^2}{4} + \frac{y^2}{9} = 1$ ellipsda $3x + y - 9 = 0$ tug`ri chiziqqa eng yaqin va eng uzoq nuqtalarni toping.

XII-BOB. KARRALI INTEGRALLAR

1-§. Ikki karrali integrallar

1. To`g`ri to`rtburchak bo`yicha ikki karrali integral. Agar integrallash sohasi $D=\left\{(x,y)\middle|\begin{matrix} a\le x\le b \\ c\le y\le d\end{matrix}\right\}$ *to`g`ri to`rtburchakdan iborat bo`lsa, u holda ikki karrali integral quyidagi ikki formulaning biri bilan hisoblanadi:*

$$\iint_D f(x,y)dxdy=\int_c^d dy\int_a^b f(x,y)dx, \qquad (1)$$

$$\iint_D f(x,y)dxdy=\int_a^b dx\int_c^d f(x,y)dy. \qquad (2)$$

(1) va (2) tengliklarning o`ng tomonidagi integrallar takroriy integrallar deyiladi. (1) dagi* $\int_a^b f(x,y)\,dx$ *ichki integral deyiladi va [a; b] da y ni o`zgarmas deb x ga nisbatan hisoblab, biror $\varphi(y)$ *natija olinadi. So`ngra* $\int_c^d \varphi(y)\,dy$ *tashqi integral hisoblanadi.*

2. Agar $D=[a,b;c,d]$ *to`g`ri to`rtburchakda integral ostidagi funksiya* $f(x,y)=\varphi(x)\cdot\phi(y)$ *ko`rinishda bo`lsa, u holda*

$$\iint_D f(x,y)dxdy=\int_a^b \varphi(x)dx\int_c^d \phi(y)dy$$

ko`paytma shaklida yoziladi.

3. D soha shuday L yopiq egri chiziq bilan chegaralangaki, Oy o`qiga parallel bo`lgan har bir to`g`ri chiziq uni ko`pi bilan 2 nuqtada kesib o`tadi. D sohani Ox o`qiga proeksiyalasak, [a; b] hosil qilinadi L konturda A(a) va B(b) nuqtalar uni ikki bo`lakka ajratadi: ularning tenglamalari $y=\varphi_1(x)$ *va* $y=\varphi_2(x)$ $\varphi_1(x)\le\varphi_2(x)$ $x\in[a;b]$ *bo`lsin. Bu holda D soha qisqacha:*

$$D:\left\{\begin{matrix} a\le x\le b \\ \varphi_1(x)\le y\le\varphi_2(x)\end{matrix}\right\}$$

ko`rinishda belgilanadi.

Ikki karrali integral takroriy integrallar yordamida

$$\iint_D f(x,y)dx\,dy=\int_a^b dx\int_{\varphi_1(x)}^{\varphi_2(x)} f(x,y)dy \qquad (1)$$

ko`rinishda yoziladi.

4. D sohani chegralovchi L yopiq kontur Ox ga parallel to`g`ri chiziqlar bilan eng ko`pi bilan ikkita umumiy nuqtaga ega bo`lsa, D sohani Oy ga proeksiyalab, [c;d] ni topamiz va $x=\phi_1(y),\ x=\phi_2(y),\ \phi_1(y)\le\phi_2(y)$ *larni hosil qilamiz. Bu holda* $\iint_{(D)} f(x,y)dxdy=\int_c^d dy\int_{\phi_1(y)}^{\phi_2(y)} f(x,y)dx$ *(2) ko`rinishda bo`ladi.*

5. Agar D soha 1 va 2 hollardagi shartlarni bir vaqtda qanoatlantirsa, u holda ikki karrali integral quyidagicha hisoblanadi.

$$\iint_D f(x,y)dxdy=\int_c^d dy\int_{\varphi_1(x)}^{\varphi_2(x)} f(x,y)dy=\int_c^d dy\int_{\phi_1(y)}^{\phi_2(y)} f(x,y)dx,$$

bu tengliklardan takroriy integrallarda integrallash tartibini o`zgartirish mumkinligi kelib chiqadi.

6. Agar soha 1 va 2-hollardagi shartlarni qanoatlantirmasa, u holda D sohani bir necha 1 yoki 2-shartlarni qanoatlantiradigan sohalarga ajratib integralning additivlik xossasidan foydalaniladi.

Takroriy integrallarni hisoblang

187. $\int_1^2 dx\int_0^1 xydy$;

188. $\int_2^3 dx\int_1^2 x^2ydy$;

189. $\int_1^2 dy\int_1^3 \frac{dx}{x^2}$;

190. $\int_2^3 dy\int_1^2 \frac{xdx}{y^2}$;

191. $\int_2^4 dx\int_0^{x^2} xdy$;

192. $\int_0^2 dx\int_0^x x^2dy$;

193. $\int_0^1 dy\int_{y^2}^{y} xdx$;

194. $\int_1^2 dy\int_0^{y^3} \frac{4}{y^3}dx$;

195. $\int_0^2 dx\int_0^x \left(x^2+2xy\right)dy$;

196. $\int_0^2 dy\int_0^{y^2} \left(x+2y\right)dx$;

197. $\int_0^1 dx \int_0^x e^{\frac{y}{x}} dx$;

198. $\int_0^5 dx \int_0^{5-x} \sqrt{4+x+y}\, dy$.

Ikki karrali integralni takroriy integralga keltiring: $\iint_D f(x,y)dxdy$

199. $D: \begin{cases} y^2 = x \\ x = 1 \end{cases}$;

200. $D: \begin{cases} xy = 6 \\ x + y - 7 = 0 \end{cases}$;

201. $D: \begin{cases} y^2 = x \\ y = x \end{cases}$;

202. $D: \begin{cases} y^2 = 4x \\ y \geq 0 \\ x = 4 \end{cases}$;

203. $D - x = 0,\ y = 0,\ x + y = 2$ to`g`ri chiziqlar bilan chegaralangan uchburchak;

204. $D - x^2 + y^2 \leq 1,\ x \geq 0,\ y \geq 0$;

205. $D - x + y \leq 1,\ x - y \leq 1,\ x \geq 0$;

206. $D - y \geq x^2,\ y \leq 4 - x^2$;

207. $D - y = x^2$ va $y = \sqrt{x}$ parabolalar bilan chegaralangan.

208. $D - y = x,\ y = x + 3,\ y = -2x + 1,\ y = -2x + 5$ to`g`ri chiziqlar bilan chegaralangan parallelogramm.

209-216 misollarda integrallash tartibini o`zgartiring.

209. $\int_0^1 dy \int_y^{\sqrt{y}} f(x,y)dx$;

210. $\int_{-1}^1 dx \int_0^{\sqrt{1-x^2}} f(x,y)dy$;

211. $\int_0^1 dx \int_{x^3}^{x^2} f(x,y)dy$;

212. $\int_0^2 dx \int_x^{2x} f(x,y)dy$;

213. $\int_0^1 dy \int_y^{2-y} f(x,y)dx$;

214. $\int_0^1 dx \int_{e^{-x}}^{e^x} f(x,y)dy$;

215. $\int_0^1 dx \int_0^x f(x,y)dy + \int_1^2 dx \int_0^{2-x} f(x,y)dy$;

216. $\int_0^1 dx \int_0^{x^2} f(x,y)dy + \int_1^3 dx \int_0^{\frac{3-x}{2}} f(x,y)dy$.

Ikki karrali integrallarni hisoblang

217. $\iint_D \frac{dxdy}{(x+y)^2}$, $D - x=3,\ x=4,\ y=1,\ y=2$ to\`g\`ri chiziqlar bilan chegaralangan to\`g\`ri burchakli to\`rtburchak.

218. $\iint_D xydxdy$, $D - y=0,\ y=0,\ y=1-x^2$ chiziqlar bilan chegaralangan soha.

219. $\iint_D (x+y)dxdy$, $D - x=0,\ y=0,\ x+y=3$ to\`g\`ri chiziqlar bilan chegaralangan uchburchak.

220. $\iint_D x\sqrt{y}dxdy$, $D - y=1,\ y=x$ va $y=3x$ to\`g\`ri chiziqlar bilan chegaralangan soha.

221. $\iint_D x^3y^2dxdy$, $D - x^2+y^2 \le R$ doira.

222. $\iint_D (x^2+y)dxdy$, $D - y=x^2,\ y^2=x$ parabolalar bilan chegaralangan soha.

223. $\iint_D xy^2dxdy$, $D - y^2=x,\ x=1$ chiziqlar bilan chegaralangan soha.

224. $\iint_D (x+y^2)dxdy$, $D - y^2=x+2,\ y=x$ chiziqlar bilan chegaralangan soha.

225. $\iint_D \sqrt{1-x^2-y^2}dxdy$, $D - x^2+y^2 \le 1$ doiraning birinchi kvadrantdagi qismi.

226. $\iint_D x^2y^2\sqrt{1-x^3-y^3}dxdy$, $D-$ koordinata o\`qlari va $x^3+y^3=1$ chiziq bilan chegaralangan soha.

2-§. Qutb koordinatalarida ikki karrali integral

1. Agar uzluksiz differensiallanuvchi $x=\varphi(u,\upsilon),\ y=\varphi(u,\upsilon)$ *funksiyalar D sohani S sohaga o`zaro bir qiymatli aks ettirsa, u holda o`zgaruvchilarni almashtirish formulasi*

$\iint\limits_D f(x,y)dxdy=\iint\limits_S f[\varphi(u,\upsilon),\ \phi(u,\ \upsilon)]|j|dud\upsilon$ *bo`ladi.*

Bunda $J(u,\upsilon)$ *yakobian quyidagicha hisoblanadi:*

$$J=\begin{vmatrix}\frac{\partial x}{\partial u} & \frac{\partial x}{\partial \upsilon}\\ \frac{\partial y}{\partial u} & \frac{\partial y}{\partial \upsilon}\end{vmatrix}.$$

2. $x=\rho\cos\varphi,\ y=\rho\sin\varphi$ *formulalar yordamida qutb koordinatalar sistemasiga o`tiladigan bo`lsa, yuqoridagi formulaga asosan:*

$$\iint\limits_D f(x,y)\,dxdy=\iint\limits_S f(\rho\cos\varphi,\rho\sin\varphi)\rho\,d\rho\,d\varphi$$

bo`ladi, bunda $|J|=\rho$.

3. Qutb koordinatlar sistemasida ikki karrali integralni takroriy integrallarga aylantirish quyidagicha bo`ladi:

a) agar S soha qutb o`qi bilan* $\varphi_1=a,\varphi_2=\beta$ *burchaklar tashkil qilgan nurlar va* $\rho=\rho_1(\varphi),\ \rho=\rho_2(\varphi),(\rho_1<\rho_2)$ *egri chiziqlar bilan chegaralangan bo`lsa,

$$\iint\limits_S f(\rho\cos\varphi,\ \rho\sin\varphi)\,\rho\,d\rho d\varphi=\int\limits_a^\beta d\varphi\int\limits_{\rho_1}^{\rho_2} f(\rho\cos\varphi,\rho\sin\varphi)\,\rho\,d\,\rho$$

bo`ladi.

b) Agar S soha koordinatalar boshi 0 nuqtani o`z ichiga olsa,

$$\iint\limits_S f(\rho\cos\varphi,\ \rho\sin\varphi)\,\rho\,d\rho\,d\varphi=\int\limits_0^{2\pi} d\varphi\int\limits_0^{\rho(\varphi)} f(\rho\cos\varphi,\rho\sin\varphi)\,\rho\,d\,\rho$$

bo`ladi.

$\iint\limits_D f(x,y)dxdy$ ***integralda qutb koordinatalariga o`ting***.

227. $D-x^2+y^2\le R^2$ doira.

228. $D-x^2+y^2\le ax$ doira.

229. $D-x^2+y^2\le by$ doira

230. $D-x^2+y^2=4x,\ x^2+y^2=8x$ aylanalar; $y=x$ va $y=2x$ to`g`ri

chiziqlar bilan chegaralangan soha.

231. $D - x^2 + y^2 \le ax$ va $x^2 + y^2 \le by$ doiralarning umumiy qismi.

232. $D - y = x,\ y = 0,\ x = 1$ to`g`ri chiziqlar bilan chegaralangan uchburchak.

Qutb koordinatalariga o`tib qo`yidagi integrallarni hisoblang.

233. $\iint\limits_D \sqrt{x^2 + y^2}\,dxdy,\quad D - x^2 + y^2 \le 9$ doiraning 1-kvadrantdagi qismi.

234. $\iint\limits_D ydxdy,\quad D - x^2 + y^2 \le 1$ doiraning yuqori yarim qismi.

235. $\iint\limits_D \frac{dxdy}{\sqrt{x^2 + y^2}},\quad D - x^2 + y^2 \ge 1,\quad x^2 + y^2 \le 4$ halqa.

236. $\iint\limits_D \frac{dxdy}{1 + x^2 + y^2},\quad D - x^2 + y^2 \le 1,\quad y \ge 0$ yarim doira.

237. $\iint\limits_D (x^2 + y^2)dxdy,\quad D - x^2 + y^2 \le 4x$ doira.

238. $\int\limits_0^R dx \int\limits_0^{\sqrt{R^2 - x^2}} \ln(1 + x^2 + y^2)dy$.

3-§. Ikki karrali integralning tatbiqlari

1. D sohaning yuzi ikki karrali integral yordamida $S_D = \iint\limits_D d\sigma$ *formula bo`yicha hisoblanadi.*

To`g`ri burchakli koordinatalarda yuz elementi $d\sigma = dxdy$ *bo`lgani uchun* $S_D = \iint\limits_D dxdy$ *bo`ladi. Egri chiziqli koordinatala sistemasida esa* $d\sigma = |J(u,\upsilon)|\,dud\upsilon$ *bo`lgani uchun* $S_D = \iint\limits_D |J(u,\upsilon)|\,dud\upsilon$ *bo`ladi. Xususiy holda qutb koordinatalar sistemasida* $|J| = \rho$ *bo`lib,* $S_D = \iint\limits_D \rho\, d\rho\, d\rho$ *bo`ladi.*

2. Quyidan z=0 tekisligi, yuqoridan $z = f(x,y) \ge 0$ *uzluksiz sirt, yon yoqlardan yasovchisi Oz o`qiga parallel, yo`naltiruvchisi D sohaning konturidan iborat bo`lgan silindrik sirt bilan chegaralangan jismning hajmi*

$$V = \iint\limits_D f(x,y)\,dxdy$$

formula bilan hisoblanadi.

3. Qutb koordinatalar sistemasida jism hajmi uchun ushbu

$$V=\iint_D f(\rho\cos\varphi,\ \rho\sin\varphi)\,\rho\,d\rho\,d\varphi$$

formul o`rinlidir.

4. a) Agar sirt $z=f(x,y)$ *tenglama berilib, uning* Oxy *tekisligiga proeksiyasi D bo`lsa, u holda sirt yuzi* $S=\iint_D\sqrt{1+\left(\frac{\partial f}{\partial x}\right)^2+\left(\frac{\partial f}{\partial y}\right)^2}\,dxdy$ *formula yordamida topiladi.*

239-250 masalalarda berilgan chiziqlar bilan chegaralangan tekis figuralarning yuzalarini hisoblang.

239. $y=0$, $y=4$, $y=-x$, $y=\frac{x-1}{2}$;

240. $y=\frac{9}{x}$, $y=x$, $x=6$;

241. $y^2=-x,\ x=-4$;

242. $y=x^2$, $x+y=6$;

243. $y^2=2x,\ y=-x$;

244. $y^2=\frac{b^2}{a}x$, $y=\frac{b}{a}x$;

245. $y=\sqrt{x},\ y=2\sqrt{x},\ x=4$;

246. $x^2+y^2-2ax=0$ va $x^2+y^2-2ay=0$ (Qutb koordinatalariga o`ting);

247. $x^2+y^2-2ax=0,\quad x^2+y^2-ax=0$;

248. $x^2+y^2=r^2$, $x^2+y^2-2ry=0$;

249. $\rho=3\cos\varphi$;

250. $\rho=a(1+\cos\varphi)$.

251-266 misollarda ko`rsatilgan sirtlar bilan chegaralangan jismlarning hajmlarini hisoblang.

251. $3x+2y+z-6=0,\ x=0,\ y=0,\ z=0$;

252. $y=\sqrt{x},\ y=2\sqrt{x},\ x+z=4,\ z=0$;

253. $z=x^2+y^2, x+y=3,\ x=0,\ y=0,\ z=0$;

254. $z=x^2+y^2+1,\ \ x=4,\ y=4,\ x=0,\ y=0,\ z=0$;

255. $\frac{x}{a}+\frac{y}{b}+\frac{z}{c}=1,\ \ x=0,\ \ y=0,\ \ z=0$;

256. $z = x^2 + y^2,\ z = 0,\quad y = 1,\ y = 2x,\ y = 6 - x$;

257. $y = x^2,\ y + z = 2,\ z = 0$;

258. $x^2 + y^2 = 1,\quad x + y + z = 3,\quad z = 0$;

259. $z = x^2 - y^2,\quad x = 1,\ y = 0,\quad z = 0$;

260. $x^2 + y^2 = 9,\quad x^2 + z^2 = 9$;

261. $z = 2 - \sqrt{x^2 + y^2},\quad z = 0$ (Qutb koordinatasiga o`ting).

262. $x^2 + y^2 = 9,\quad z = 5x,\quad z = 0$;

263. $z = 1 - x^2 - y^2,\quad y = x,\quad y = x\sqrt{3},\quad z = 0$ (I oktantdagi qismi).

264. $z = x^2 + y^2,\quad x^2 + y^2 = 2x,\quad z = 0$;

265. $z = 4 - x^2 - y^2,\ z = \dfrac{2 + x^2 + y^2}{2}$;

266. $x^2 + y^2 + z - 4 = 0,\quad z = 0$.

267-274 masalalarda berilgan sirt bo`laklarining yuzini hisoblang.

267. $6x + 3y + 2z = 12$ tengsizlikning I oktantdagi bo`lagi.

268. $x^2 + y^2 = R^2$ tsilindrning $z = 0,\ z = H$ tekisliklar orasidagi bo`lagi.

269. $x^2 + y^2 = R^2$ tsilindrning $z = 0,\ z = kx$ tekisliklar orasidagi bo`lagi.

270. $x^2 + z^2 = 9$ tsilindrning $x^2 + y^2 = 9$ tsilindr bilan kesilgan bo`lagi.

271. $x^2 + y^2 = 2z$ paraboloidning $x^2 + y^2 = 3$ tsilindr ichida joylashgan bo`lagi.

272. $z = \sqrt{x^2 + y^2}$ konusning $x^2 + y^2 = 2x$ tsilindr ichida joylashgan bo`lagi.

273. $z^2 = x^2 + y^2$ konusning $z^2 = 2py$ tsilindr bilan kesilgan bo`lagi.

274. $x^2 + y^2 + z^2 = 9$ sferaning $x^2 + y^2 = 4$ tsilindr bilan kesilgan bo`lagi.

Qo`yidagi bir jinisli tekis figuraning og`irlik markazini koordinatalarini toping.

275. $D - y = x^2$ parabola va $x + y = 2$ to`g`ri chiziqlar bilan chegaralangan soha.

276. $y = \sqrt{R^2 - x^2},\ y \geq 0$;

277. $\dfrac{x^2}{a^2} + \dfrac{y^2}{b^2} = 1,\quad y \geq 0$;

278. $D - y = \sqrt{2x - x^2}$ va $y = 0$ chiziqlar bilan chegaralangan soha.

4-§. Uch karrali integralni hisoblash

1. Uch o`lchovli fazoda T jism berilgan bo`lib, unda $u = f(x, y, z)$ *funksiya aniqlangan bo`lsin.*

Agar T jism quyidagi tengsizliklar bilan aniqlangan bo`lsa,

$$T = \left\{ (x, y\, z) \left| \begin{array}{l} a \le x \le b \\ \varphi_1(x) \le y \le \varphi_2(x) \\ \phi_1(x, y) \le z \le \phi_2(x, y) \end{array} \right. \right\},$$

U holda uch karrali integral

$$\iiint\limits_T f(x, y, z)dxdydz = \int_a^b dx \int_{\varphi_1(x)}^{\varphi_2(x)} dy \int_{\phi_1(x,y)}^{\phi_2(x,y)} f(x, y, z)dz$$

formula yordamida hisoblanadi.

Takroriy integrallarni hisoblang.

279. $\int_0^2 dx \int_0^3 dy \int_0^4 (x + y + z)dz$;

280. $\int_{-1}^1 dx \int_{x^2}^1 dy \int_0^2 (z + 4)dz$;

281. $\int_0^2 dx \int_0^x dy \int_0^y xyzdz$;

282. $\int_0^{\frac{1}{2}} dx \int_x^{2x} dy \int_0^{\sqrt{1-x^2-y^2}} zdz$.

283-292 misollarda uch karrali integrallarni hisoblang.

283. $\iiint\limits_G (x^2 + y^2 + z^2)dxdydz, \quad x = 0, \quad x = a, \quad y = 0, \quad y = b, \quad z = 0, \quad z = c$;

284. $\iiint\limits_G ydxdydz, \quad x = 0, \quad x = 2, \quad y = 0, \quad y = 1, \quad z = 0, \quad z = 1 - y$;

285. $\iiint\limits_G xz^2dxdydz, \quad x = \sqrt{2y - y^2}, \quad x = 2, \quad y = 0, \quad y = 2, \quad z = 0, \quad z = 3$;

286. $\iiint\limits_G (2x + 3y - z)dxdydz, \quad x = 0, \quad y = 0, \quad x + y = 3, \quad z = 0, \quad z = 4$;

287. $\iiint\limits_G xyzdxdydz, \quad x = 0, \quad y = 0, \quad z = 0, \quad x + y + z = 1$;

288. $\iiint\limits_G xy^2z^3dxdydz, \quad x = 1, \quad y = x, \quad z = 0, \quad z = xy$;

289. $* \iiint\limits_G z^2 dxdydz, \quad z = x^2 + y^2, \quad z = 2, \quad z = 6$;

290. $\iiint\limits_G z^3 dxdydz, \quad z = 4 - x^2 - y^2, \quad z = 0, \quad z = 3$ (289-misolning javobiga qarang).

291. $\iiint\limits_G \frac{1}{z} dxdydz, \ (x-1)^2 + y^2 = 1 \quad z = 3, \quad z = 6$ (289-misolning javobiga qarang).

292. $\iiint\limits_G \frac{1}{z^2} dxdydz, \quad x^2 + y^2 + z^2 = 9, \quad z = 1, \quad z = 2$ (289-misolning javobiga qarang).

5-§. Silindrik va sferik koordinatalarda uch karrali integral

1. $x = \rho\cos\varphi, \ y = \rho\sin\varphi, z = z$ *silindrik koordinatalarga o`tib, uch karrali integralni hisoblash mumkin:*

